

## THE PLACE OF THE RUBAI GENRE IN ZM BOBUR'S "BOBURNOMA"

Umida Yahyoyeva Ibrahim qizi

Teacher of the Presidential School in Bukhara

Zarina Jo`rayeva Hasanovna

Teacher of the Presidential School in Bukhara

### ANNOTATION

This article analyzes the rubai in "Boburnoma", a unique work of Z.M. Bobur, which is important in the history of the Uzbek language. The main purpose of the study was to study Z.M., a representative of Uzbek classical literature. It is also important to study the history of the lyrical works used in Bobur's book of life, to shed light on their meanings, and to focus on the author's skill in using lyrical passages. In particular, the main purpose of the study is to identify the main function of the rubai genre in the work, to identify and analyze the leading ideas in them.

**Keywords:** "Boburnoma", "Vaqoe", rubai genre, lyrical hero rubai on social theme, rubai on correspondence, rubai on poetry and poetic inclination, rubai on love.

### INTRODUCTION

Mustaqillikdan keyin o`zbek xalqining o`z tarixi, ma`naviy merosiga munosabati o`zgardi. Bu barcha soha olimlari qatorida adabiyotshunoslar zimmasiga ham jiddiy mas`uliyat yukladi. Badiiy manbalarni o`rganish, yosh avlodga yetkazish muhim vazifalardan biriga aylandi. Ana shunday noyob asarlardan biri bu Z.M. Boburning "Boburnomasi" hisoblanadi.

«Boburnoma» asari o`zbek tili tarixida muhim ahamiyatga ega noyob manbadir. Bu asarning ko`p jihatlari tadqiq ostiga olingan. Xususan, akademiklar: V.Y. Zohidov, B.N. Valixo`jayev, shoir va olim Maqsud Shayxzoda, taniqli adabiyotshunos N.M. Mallayevlarning maxsus risola, maqola va darsliklarida Bobur ijodi va "Boburnoma"ga oid muhim ma`lumotlarni qayd qilishgan. Z.M. Bobur lirikaning bir qator janrlarida samarali ijod qilgan. Lirik ijodining katta qismini tashkil etgan ruboiy janriga xos bo`lgan qisqalik, ixchamlik, undagi fikrlarning dalillanishi kabi xususiyatlar Bobur mirzoga bir qadar ma`qul kelgan, nazarimizda. Zero, uning lirik ijodidagi namunalardan ruboiy janrining alohida o`rni bor.

"Boburnoma"dagi ruboiylar miqdoran u qadar ko`p bo`lmasa-da, ammo badiiy salohiyat va g`oyaviy bo`liqlik, emotsional ta`sir nuqtayi nazaridan tahsinga sazovordir. "Vaqoe"da jami 7 ta ruboiy keltirilgan. Ular muallifning tashqi ta`sirlar natijasida kayfiyatidagi o`zgarishlar, botiniy dunyosidagi evrilishlarni o`zida namoyon etadi

"Bizga Qurbon iydi Shohruhiyada bo`ldi. Betavaquf o`tub, xon qoshig`a Toshkendga bordim. Bu ruboiyni aytib edim. Ma`lum qofiyasida taraddudim bor edi, ul mahalda she`r mustolohotig`a muncha tatabbu` qilmaydur edim. Xon xushta`b kishi edi, she`r aytur edi, agarchi sor-u sonolik g`azali kamroq edi, bu ruboiyni xonga o`tkazib, taraddudimni arz qildim. Ko`ngul tingudek shofiy javob topmadim. G`olibu she`r mustolohotig`a kamroq tatabbu` qilg`ondirlar. Ruboiy budur:

Yod etmas emish kishini mehnatta kishi,  
Shod etmas emish ko`ngulni g`urbatta kishi.  
Ko`nglum bu g`aribliqta shod o`lmadi hech,  
G`urbatta sevmas emish, albatta kishi”.

Asarning 1501-1502-yillar voqealari bayoni qismidan keltirilgan ushbu parchada ruhiy iztirob, tushkunlik kayfiyati yaqqol seziladi. Ko`rinadiki, ham Farg`ona, ham Samarqandni qo`ldan chiqargan Bobur she`riy sehriga suyangan, deb rozini unga to`kib solgan va shu bilan oshufta qalbiga tasalli bergan.

Muhimi shundaki, Bobur Mirzoga xos adabiy odat-dalillar, voqealar, shaxslarga xolisona qarash shu parchadan ham seziladi. Garchi Toshkent hokimi unga arzigulik javob qilmagan bo`lsa-da, ulug` adib uning fazilati – tab`i nazmi borligi va xushfe`lligini, shuningdek, nuqsoni – tuzukkina iste`dodi bo`la turib, yaxshi asarlar yarata olmaganini ro`yirost ko`rsatib o`tadi. “Boburnoma”dagi mana bu parchalar ham g`oyat muhimdir:

“Ul fursatlarda birar, ikkirar bayt aytur edim. Vale g`azal tugatmaydur edim. Birgina turki ruboiy aytib yibordim. Ruboiy:

Ishlar bori ko`ngulungdag`idek bo`lg`usidur,  
In`om-u vazifa bori buyrulg`usidir.  
Ul g`alla-u muxmalki deb erding, berdim,  
Muxmalg`a bo`y-u g`alladin uy to`lg`usidir.

Mulla Binoiy bu ruboiyning so`nggi misrasining qofiyasini radif qilib, o`zga qofiya bila bir ruboiy aytib o`tkardi:

Mirzomki shohi bahr-u bar bo`lg`usidur,  
Olamda hunar birla sar bo`lg`usidur,  
Bil muhmal uchun muncha inoyat bo`ldi,  
Musta`mal agar desam, nelar bo`lg`usidur?

Ul fursatta Xoja Abulbaraka Firoqiy Shahrsabzdin Samarqandga kelib edi. Dedikim, o`shul radif va qofiyada aytmog` kerak edi. Bu ruboiyni Xoja Abulbaraka aytdi:

Bu javrki qildi davr surulg`usidur,  
Sultoni karam bu uzrni qo`lg`usidur.  
To`kulgan agarchi to`lmas, ey, soqiy,  
To`kulganimiz bu davrda to`lg`usidur”

Ushbu parcha 1500-1501-yil voqealariga taalluqli bo`lib, bir necha tomonlama tahlilga tortish imkonini beradi. Bulardan birinchisi, yuqorida ta`kidalaganidek, she`riyatning Bobur Mirzo ko`ngliga tasalli berish vositasi vazifasini o`tagan; Ikkinchidan, ko`zdan kechirilgan lavhalar muallif asarlarining paydo bo`lish tarixi, shu bilan birga ayni paytdagi hukmron kayfiyatni aniqlashda “Boburnoma”ning zaruriy manba ekanligini ko`rsatadi. Bundan tashqari, shu kichik parcha Boburning ijod ahliga xayrixohlik bilan qaraganidan, ularga moddiy va ma`naviy madad ko`rsatib turganidan dalolat beradi. Keltirib o`tilgan Bobur Mirzo ruboiysi va unga Kamoliddin Binoiyning javobiya she`ri buning yorqin dalilidir. Boshqa jihatdan, bu parcha Kamoliddin Binoiyning o`zbek tilini yaxshigina bilganligi va turkiy tilda ham she`rlar yozganligini bilish imkonini ham beradi.

“Boburnoma”dagi ko`pgina ruboiylar atrofdagi voqea-hodisalarga munosabat tarzida bitilganligi Boburning shaxsiy sifatlarini ochib berish uchun xizmat qiladi.

Bobur she`riyati ustida tadqiqot olib borgan Aziz Qaymov shoh va shoirning ruboiylarini mavzular xilma-xilligi nuqtayi nazaridan bir necha turlarga ajratadi. Masalan:

1. Ijtimoiy mavzudagi ruboiylar.
2. Yozishmalarga oid ruboiylar.
3. She`r va she`r mayliga oid ruboiylar.
4. Ishq-muhabbat mavzusidagi ruboiylar va boshqalar

Ijodkor ruboiylari falsafiy-tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan uning g`azallaridan qolishmaydi. Chog`ir-may masalasi muallif she`riyati, xususan, ruboiylarida ham majoziy, ham asl ma`nosi bilan tilga olinadi. May ta`rifini berish bilan bir qatorda, bunday ruboiylarda ijodkorning ichki kechinmalari ixcham satrlarga jo etiladi. Yuqorida keltirilgan ruboiyda ham muallif kayfiyati hech qanday izohlarsiz aniq-ravshan namoyon bo`lmoqda. Chog`irga madhiya bitib, uni ulug`lash darajasi yetgan Bobur hukmronlik mas`uliyati bois kuchli irodaga tayanib, undan voz kechadi. Guvohi bo`lganimizdek, bu yildagi iztiroblarini mardonavor nazmga sola olgan.

Aziz Qayumov ta`kidlaganidek: “Lirik qahramonning ichki dardlari, uning ruhiy holati yuragini to`ldirgan dardlari ruboiylarda o`z aksini topa oladi”.[] Shunday ruboiylar ham borki, unda nafaqat ruhiy olamidagi og`riqlar, balki jismidagi notoblik ham o`z aksini topadi. Masalan:

Jismimda isitma kunda mahkam bo`ladur,  
Ko`zdin o`chadur uyqu, chu o`xsham bo`ladur.  
Har ikkalasi g`amim bila sabrimdek,  
Borg`on sayi bu ortadur, ul kam bo`ladur.

Bobur lirikasini o`rganishda “Vaqoe”ning eng ahamiyatli jihati, mavjud yil voqealarini o`rganish, lirik asarlarni yaratish uchun dalil bo`lgan asosni bilish imkonini kengaytiradi. Yuqoridagi ruboiyning yozilish sababi haqida “Boburnoma”da o`qiymiz:

“Yakshanba kuni muxarram oyining o`n oltisida isittim, titradim, navbat-navbat bo`ldi. Yigirma besh-yigirma olti kunga tortti. Doruyi kor ichtim. Oxir bosit yarashti, uyqusizlig` va tashnalig`din bisyor tashvish torttim. Bu maraz ayyomida uch-to`rt ruboiy aytili...”

Keltirilgan ushbu nasriy dalillardan so`ng, ruboiyni tahlilga tortish bizga bir qadar qiyinchilik tug`dirmaydi.

Muallif ushbu ruboiysida isitmani - g`amga, uyquni esa – sabrga qiyoslamoqda.

“Borg`on sayi bu ortadur”, ya`ni isitma azobi kuchayib boradi va ijodkorning badiiy mahorati bois uning g`am-tashvishli kunlariga noziklik bilan ishora qilinadi: “...bul kam bo`ladur”, - bunda ham uyquning, hordiqning ozligi, ham shoh va shoir botinidagi sabrning ichki va tashqi ziddiyatlar natijasida yemirilib borayotgani ifodasini topgan.

Xulosa qilib aytish joizki, Bobur ijodiga oid asarlarda, “Dilbar shaxs” lirikasida, ayniqsa, ruboiylarida turmush ko`rinishlari kattagina qismni egallashi ta`kidlanadi. Shu bois Bobur ruboiylari zamondosh ijodkorlaridan alohida ajralib turadi. Bu esa bizga tariviy voqeliklarni urganish uchun ham asos vazifasini bacharadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abdug`afurov A. «Tira oyini bila» // O`zbek tili va adabiyoti. - 2001. 2-son.- B. 22-25.
2. Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari. – Toshkent: “Fan”, 1993.
3. Arasli H. Imodiddin Nasimiy – Toshkent: Fan, 1973. -
4. Boboyev T. She`r ilmi ta`limi. – Toshkent: “O`qituvchi”, 1996.
5. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent: “O`zbekiston”, 2002.
6. Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi. – Toshkent: “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi”. 2008.
7. Vohidov R. va b. So`z bag`ridagi ma`rifat. – Toshkent: Fan, 2001
8. Jumaxo`ja N. Satrlar silsilasidagi sehr. – Toshkent: O`qituvchi, 1996.
9. Jumayev N. O`n sakkiz yosh hayratlari // “O`zbekiston adabiyoti va san`ati”, 1990 yil, 21 sentyabr.
10. Is`hoqov Y. Tashobehul atrof// “O`zbek tili va adabiyoti”-1982-yil, 1-son.
11. Izzat S. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: O`qituvchi”, 1980. 391b.
12. Orzibekov R. Lirikada kichik she`riy janrlar. -Toshkent:”Fan”, 1980
13. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: Sharq, 1999.